



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 20-mart

137-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 19-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 14-martdagi PQ-101-son qarori ijrosi haqida”gi 139-6-0-Q/25-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 14-martdagi PQ-101-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 19-martdagi 139-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 14-martdagi PQ-101-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 19-martdagi 139-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi PQ-101-son qarori bilan:

2024-yil 13-noyabrda Boku shahrida imzolangan Ozarbayjon Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida yashil energiyani rivojlantirish va uzatish sohasida strategik sheriklik to‘g‘risidagi Bitim tasdiqlanganligi;

Energetika vazirligi ushbu xalqaro shartnomani amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ etib belgilanganligi;

Tashqi ishlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ushbu xalqaro shartnomaning kuchga kirishi uchun zarur bo‘lgan davlat ichki tartib-taomillari bajarilganligi hamda uni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ to‘g‘risida Ozarbayjon tomoniga tegishli bildirishnoma yuborishi;

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari mazkur xalqaro shartnoma kuchga kirganidan keyin belgilangan tartibda uning qoidalarini amalga oshirish ustidan nazoratni ta'minlashi belgilanganligi e'tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov